

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLIKLARIDA METAFORANING AHAMIYATI

Xaqqulova Dilshoda Abduvasiyevna

Osiyo xalqaro universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada metaforaning ona tilidagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Metafora – nutqni obrazli, ta’sirchan va mazmunli qilishda muhim vosita bo‘lib, u adabiyot, publitsistika va kundalik nutqda keng qo‘llaniladi. Metaforaning fikrni aniq va ifodali yetkazishdagi o‘rni, uning badiiy hamda kommunikativ ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Metafora, badiiy vosita, obrazlilik, ko‘chma ma’no, nutq ta’sirchanligi, ona tili, adabiy til.*

Kirish

Til inson tafakkuri va madaniyatining asosiy ifoda vositasidir. Undagi turli badiiy vositalar nutqni yanada jonli va ta’sirchan qiladi. Metafora ana shunday usullardan biri bo‘lib, u so‘z va iboralarga ko‘chma ma’no yuklaydi va tilni yanada boyitadi. Metaforaning adabiyotda, ilmiy va kundalik nutqda tutgan o‘rni uni o‘rganish zaruratiniz yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda har bir soha jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy asrimizda bolalar dunyoqarashini rivojlantirish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish, kelajak avlodning yetuk inson bo‘lib kamol topishlarida bola psihologiyasiva, nutqiga e’tibor qaratish davrning talabi bo‘lib qolmoqda.Ushbu muammoning yechimi sifatida bolalarning nutqida metaforalar va ularning psiholingvistik hususiyatlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

XX asr jahon tilshunosligida olam manzarasining metaforik talqini, tilning ekspressiv- emotsional yuklamasi hamda ko‘chma ma’noda uyg‘unlashgan kognitiv, affektiv, perseptiv tajribada metaforaning o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. Olamni konseptuallashtirishning kognitiv vositasi bo‘lgan metaforaga nisbatan turli yondashuvlar, pirovardida, XX asr tilshunosligi metafora nazariyasini yangi konsepsiylar bilan boyitdi, metaforologiyaning o‘zi esa terminologik jihatdan yanada mukammallahadi.

Nutqimizda keng tarqalgan ma’no ko‘chish usullaridan biri metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida nom (so‘z)ning ko‘chishidir. Metafora (yunoncha metaphora - ko‘chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir. Masalan: ariqning boshi, yurtimiz quyoshi, daraxtning ko‘zi.

Metaforalarni o‘rganish qadimgi davrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lgan mavzu hisoblanadi. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning alohida usuli va vositasi sifatida ko‘rsatish Aristotel (shuningdek Sitseron)ga taalluqli g‘oyadir. D.

**“FAN, INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

20-Fevral, 2025-yil

F.Sitseron, Kvintiliandan farqli ravishda , ilk marta metafora orqali buyumlar to‘g‘risidagi ma’lumotni aniq va ravshan yetkazish mumkinligini payqadi.

Metaforalarga juda yaqin yana bir vosita bu o‘xshatishdir. O‘xshatish ham ko‘chma ma’no ustiga qurilishi bilan metaforalarga o‘xhash bo‘lib, ular yordamida shaxs va predmetlar bir- biriga o‘xshatiladi. Masalan: Adashgan it kabi, Furqat qayon borgun bilolmasman. Lekin o‘xshatishlarda metaforalardan farqli o‘laroq –dek, –day, –simon, – vash, –namo, kabi, singari, yanglig‘, misoli, o‘xhash kabi vositalar qo‘llaniladi. Masalan: Ulug‘bek – yurtimiz quyoshi. (metafora) Ulug‘bek misoli quyosh. (o‘xshatish)

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnda metaforaning shakllanishi va ifodalanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamli funktsional va Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnda metaforaning shakllanishi va ifodalanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamli funktsional va pragmatik vazifalarni o'rganish uning lingvistik holatining turli tomonlarini aniqlashni oldindan belgilab berdi:

- 1) konseptual - "metafora printsip emas. g'ayrioddiy so'z qo'llanilishi, lekin badiiy dunyoni shakllantirish usuli. U she'riy qarashlar olamining subyektiv mazmunida individual ijodiy xususiyatlarni aks ettiradi";
- 2) sintaktik - "metafora - bu so'zning qayta ko'rib chiqilgan ma'nosida ko'rsatilgan narsa bilan qandaydir o'xshashlikka asoslangan ob'ektning xususiyatlari haqidagi bayonot", "metafora – pion kabi 24 til va tafakkur birliklarida abadiy aql.
- 3) semantik - "o‘xhash bo'lmaganning o‘xhashligi, keng ma'noda qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarni aniqlash";
- 4) poetik – “metafora – tilning orzusi, orzusi” ;
- 5) ijtimoiy - "jamoat birlashmalari tizimi".

Metaforalar boy tasvirlarni va tasvirlangan narsaning his-tuyg'ularini uyg'otadi. Ular bitta fikrni yoki butun umr tajribasini yorqin ifodalashlari mumkin. Garchi ko'pchilik tilshunoslar ularni “shunchaki obrazli” deb rad qilgan bo“lsalar ham, bugungi kunda ular so‘zlovchi idrokining o‘ta to‘g‘ri tavsifi sifatida qabul qilinadi. Muammolarimiz, his-tuyg'ularimiz, istaklarimiz, munosabatlarimiz - biz uchun eng muhim narsalar haqida gapirganda, tajribamizning chuqurligi va murakkabligini tasvirlash uchun metaforadan foydalanish ehtimoli ko'proq.

Jorj Lakoff va Mark Jonsonning aqlni kengaytiruvchi "Biz yashayotgan metafora" kitobida ular shunday deydilar:

"Metaforaning mohiyati bir turdag'i narsani boshqasi nuqtai nazaridan tushunish va boshdan kechirishdir."

Xulosa

Metafora ona tilining eng muhim badiiy vositalaridan biri bo‘lib, u nutqning ta’sirchanligi va ifodaviyligini oshiradi. U inson tafakkurini boyitadi, so‘zlarning ma’nodorligini oshiradi hamda fikrni aniq yetkazishga yordam beradi. Shuningdek, metafora adabiyot va publisistikada katta ahamiyat kasb etib, ijodiy nutq rivojida muhim

rol o‘ynaydi. Shu sababli, metaforalardan to‘g‘ri va samarali foydalanish til boyligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaqqulova, D. (2024). ABDURAHMON GO ‘ZAL-YASSAVIYSHUNOS. *PEDAGOG*, 7(6), 8-15.
2. Xaqqulova, D. (2024). ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO ‘ZALNING TADQIQOTLARI XUSUSIDA. *PEDAGOG*, 7(5), 548-555.
3. XAQQULOVA, D. (2023). BADIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI. *Наука и технология в современном мире*, 2(5), 5-11.
4. Abduvasiyevna, X. D. (2024). SO ‘Z TUZILISHI VA SO ‘Z YASASH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 261-266.
5. Abduvasiyevna, X. D. (2024). NUTQ MADANIYATI VA OG ‘ZAKI MULOQOT. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 255-260.
6. Abduvasiyevna, X. D. (2024). MATN TAHLILI VA MAZMUNNI TUSHUNISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 279-284.
7. Abduvasiyevna, X. D. (2024). GAP TUZILISHI VA UNING TURLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 267-272.
8. Abduvasiyevna, X. D. (2024). ONA TILIDA IMLO QOIDALARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 273-278.
9. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 26-31.
10. Ikromova, S. A. (2024). INTELLEKT VA IQBOL: KOGNITIV PSIXOLOGIYA. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 99-104.
11. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВНЫЕ ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИИ. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 20-25.
12. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КРИЗИСЫ. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 1(2), 29-35.
13. Икромова, С. А. (2024). ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ И ПАМЯТЬ ЧЕЛОВЕКА. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 1(3), 59-65.

20-Fevral, 2025-yil

14. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK SALOMATLIK VA UNING JAMIYATDAGI ROLI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 93-98.
15. Икромова, С. А. (2024). КОНСУЛЬТИРОВАНИЕ И ТЕРАПИЯ ЛЮДЕЙ В СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 8-14.

